



TIBBIY TA'LIM JARAYONIDA KREDIT MODUL TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

¹Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich, ²Ismailov Saidmurad Ibragimovich, ³Akilov Farxad Ataulaevich

¹Andijon davlat tibbiyot instituti,

²Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi,

³Toshkent tibbiyot akademiyasi

✓ *Rezyume*

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kredit modul tizimi, tibbiy ta'lim, xususiyatlar, muammolar.

ОСОБЕННОСТИ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В ПРОЦЕССЕ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

¹Шадманов М.А., ²Исмаилов С.И., ³Акилов Ф.А.

¹Андижанский государственный медицинский институт,

²Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр хирургии,

³Ташкентская медицинская академия

✓ *Резюме*

Кредитная технология дает учащимся право выбора факультативных предметов, входящих в рабочий учебный план, тем самым непосредственно участвуя в формировании индивидуального учебного плана. Им предоставляется свобода выбора не только предметов, но и профессоров. Предоставление учащимся возможности выбирать предметы является положительным моментом. Он также считается специфическим стоимостным показателем оценки образовательных процессов.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, медицинское образование, особенности, проблемы.

FEATURES OF THE CREDIT-MODULAR SYSTEM IN THE PROCESS OF MEDICAL EDUCATION

¹Shadmanov M.A., ²Ismailov S.I., ³Akilov F.A.

¹Andijan State Medical Institute,

²Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center for Surgery,

³Tashkent Medical Academy

✓ *Resume*

Credit technology gives students the right to choose optional subjects included in the working curriculum, thereby directly participating in the formation of an individual curriculum. They are given the freedom to choose not only subjects, but also professors. Giving students the opportunity to choose subjects is a positive thing. It is also considered a specific value indicator for evaluating educational processes.

Key words: credit-modular system, medical education, features, problems.



Dolzarbligi

Zamonaviy jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur.

Ta'lim masalasi jahonning ko'plab mamlakatlarida muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Ko'pchilik davlatlarda global raqobat sharoitidagi yangi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bulardan asosiy maqsad oliy o'quv yurtlarining va o'quv dasturlarining moslashish imkoniyatlarini kengaytirish bo'lib, ular akademik va tashkiliy tuzilmalarni isloh qilish, infrastrukturani, ta'lim metodlari hamda texnologiyalarini yangilash, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilar tarkibi va sifatini yaxshilash orqali amalga oshirilmoqda [1, 3].

Bu borada, YuNESKO tomonidan muntazam ravishda, oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqilmoqda, xalqaro hamkorlikning me'yoriy asoslarini yaratish bo'yicha yangi g'oyalar ilgari surib kelinmoqda. Akademik erkinlik va demokratiyani ta'minlash bo'yicha universal me'yorlarning mavjudligi, YuNESKO va Yevropa Ittifoqining milliy ta'lim tizimlari uchun tobora me'yoriy ahamiyat kasb etayotgan xalqaro konvensiyalar hamda butun jahon deklaratsiyalari bu jarayonlar uchun asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi [2, 7].

Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Shu ma'noda O'zbekiston oliy ta'lim jarayoniga tadbiiq etilayotgan kredit-modul tizimi ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan jarayonni yanada texnologiyalashtirish yo'li bilan jahon ta'lim tizimida qo'llanilayotgan eng ilg'or innovatsiyalarni ijobiy o'zlashtirish demakdir [4, 6].

Kredit tizimi ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabani haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. AQSh kredit-modul tizimi eng birinchilardan joriy etilgan tizim sifatida dunyo davlatlari va shu bilan birga Yevropa davlatlari oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan.

1869 yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini amaliyotga kiritadi. Ko'p o'tmay u universitetdagi qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlarini bekor qiladi. Endilikda, Garvard Universitetida talabalar o'quv dasturida taklif qilinadigan fanlar orasidan o'zlari xohlagan, qiziqqan fanlarni tanlab, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni, har bir talaba o'zining universitetdagi o'qish dasturini ma'lum ma'noda o'zi shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lgan edi. Bu islohot mamlakat yoshlari orasida Garvard Universitetiga bo'lgan qiziqishni jonlantirib yuboradi. Talabalar o'zlari qiziqqan fanlarni tanlayotganliklari uchun universitet o'quv dasturlaridagi fanlar ham tabiiy ravishda saralana boshlanadi. Universitet fanlari ro'yxatini iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlariga mos fanlar egallay boshlaydi. O'z fanlariga talabalarni jalb qilish maqsadida o'qituvchilar ham darslari sifatini yaxshilashga harakat qila boshlaydi. Aks holda ular o'qitayotgan fan o'quv dasturidan chiqarib yuborilishi mumkin edi. Darslarda talabalarning faolligi ham ancha ortadi [5, 9].

Garvard Universiteti qat'iy o'quv dasturlardan voz kechgandan so'ng, universitet oldida bir qator masalalar echimi zarur bo'ladi ya'ni, talabalarning kursdan kursga o'tishi yoki bitirishiga doir mezonlari, ularning o'qish dasturidagi rivojlanishining tavsiflanishi, talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi uchun qancha bilim egallashi lozim. Garvard Universitetida mazkur savollar quyidagicha hal qilinadi: har bir fanga uning o'qish yuklamasidan kelib chiqib ramziy o'lchov birliklari, ya'ni kreditlar taqsimlanadi. Ya'ni, har bir fan muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi va talaba bir o'quv

yili oxirigacha ushbu miqdordagi kreditlarni to'plashi kerakligi belgilab qo'yiladi. Endilikda, universitet talabalarini o'quv dasturlaridagi rivojlanishini, muayyan ta'lim darajasiga munosibligini u jamg'argan kreditlar soniga qarab aniqlay boshlaydi. Bu universitet uchun ham, talabalar uchun ham qulay, tushunish oson bo'lgan tizim edi. Asta-sekinlik bilan boshqa universitetlar ham Garvard Universiteti amaliyotini o'zlarida qo'llay boshlaydi. Qaysi universitetlar shu amaliyotni qo'llasa yoshlar orasida shu universitetlarga qiziqish orta boshlaydi [6, 10].

Shunday qilib, 1870 — 1880 yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi. 1930 yillarga kelib AQSh oliy ta'lim muassasalarining deyarli barchasi kredit tizimida faoliyat yurita boshladi.

1976 yilda Yevropa Ittifoqi davlatlari ta'lim vazirlari mazkur davlatlar universitetlari o'rtasida hamkorlikda o'qish dasturlari joriy etish borasida kelishuvga erishishadi. Lekin bu loyihani amalga oshirish, uning moliyaviy va huquqiy tomonlarini ishlab chiqish uchun 10 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ldi. Va nihoyat 1987 yilda Yevropa ittifoqining London Sammiti davomida ittifoq a'zo mamlakatlari oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlovchi Erasmus (ERASMUS) dasturi tashkil etiladi. Bundan ko'zlangan maqsad Yevropa ittifoqi davlatlari universitetlarida o'qiyotgan talabalar bir yil yoki bir semestr davomida boshqa a'zo davlatlar hududidagi universitetlarda o'zaro almashlash bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish edi [8, 12].

Erasmus dasturi 1989 yilda Amerika kredit tizimi va Niderlandiya oliy ta'lim tizimiga asoslangan holda yangi kredit-modul tizimi qoidalarini ishlab chiqadi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Ushbu qoidalar o'zida Yevropa Ittifoqi davlatlari universitetlarining o'quv dasturlari, ularda taklif etiladigan fanlarni qiyoslash va talabalar almashinuvi doirasida horij universitetlarida olgan fanlarini o'z universitetlarida tan olinishi tamoyillarini qamrab olgan edi. ECTS kredit-modul tizimi qoidalarini joriy etish natijasida Yevropa Ittifoqi davlatlari universitetlari o'rtasida talabalar almashinuvi rivojlana boshlaydi. Dasturda qatnashuvchi universitetlar o'quv dasturlari xalqaro darajada e'tirof ega bo'la boshlaydi.

Kredit-modul tizimi bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. U bir butunlikda olib borilishi zarur bo'lgan serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; ularni bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi [9, 11].

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilganidir.

Bugungi kunda mazkur kredit o'lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha to'rtta model keng tarqalgan. Bular Amerika qo'shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo — Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS) [6, 11].

Ushbu modellarning ichida eng ko'p tarqalgani AQSh va Yevropa modellaridir. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kredit tizimini joriy etishda Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishga ustuvorlik qaratyapti. Uning afzal jihatlari, qulayliklari, yutuq va kamchiliklari ham mavjud bo'lib ularga quyida to'xtalamiz:

ECTS (The European Credit Transfer and Accumulation System) – Yevropa Kredit Transfer Tizimi 1989 yilda asos solingan bo‘lib, Yevropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimidir. Mazkur tizimda talaba olgan bilimining bahosini bir davlatdan (OTMdan) ikkinchi davlatga (OTMga) erkin ko‘chishini, erishilgan ko‘nikma va malakasini erkin tan olinishini, pirovardida barchasini hisobga olib daraja (diplom) berilishini nazarda tutuvchi tizimdir. Bunda ta‘lim olishning barcha turlari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) va o‘quv yuklamasining barcha ko‘rinishlari (ma‘ruza, amaliyot, laboratoriya v.h) qo‘llanilishi mumkin [1, 10].

Kredit to‘plash o‘lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo‘lib etishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog‘da, baholash tizimi va ta‘lim texnologiyalarining takomillashtirishiga ham olib keldi.

1999 yilga kelib Yevropada Bolonya protsessi deb atalgan Yevropa mamlakatlari oliy ta‘lim vazirliklari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish xalqaro forumi ish boshlaydi. Forumning maqsadi Yevropa davlatlarida oliy ta‘lim standartlari va sifatini uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi. Bolonya protsessida Evropa davlatlari endilikda ECTSni o‘zlarining oliy ta‘lim muassasalarida ta‘limni tashkil etishning asosiy usuli sifatida targ‘ib qilishga kelishib olishadi. Buning natijasida ECTS endilikda nafaqat talabalar xalqaro almashinuvi maqsadida balki, Yevropa mamlakatlari doirasida universitetlarda ta‘limni tashkil qilish usuli sifatida keng tarqala boshlaydi. Mazkur harakatlarning samarasi o‘laroq, 1999 yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolanadi.

Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida dunyoning 48 ta mamlakati ishtirok etmoqda. Ularning orasida mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog‘iston va Belarus Respublikalari ham bor. Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida Qozog‘iston Respublikasi 2010 yilda Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shildi va u ushbu xududda hozircha yagona bo‘lib turibdi. Bolonya jarayoni – bu Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta‘limni uyg‘unlashtirish jarayonidir. U tushunish oson bo‘lgan va o‘xshash oliy ta‘lim darajalar tizimini yaratishni, ta‘limda kredit-modul tizimiga o‘tishni, ta‘lim sifatini ta‘minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta‘lim hamkorligini o‘z ichiga oladi. Demak, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta‘lim tizimlarini uyg‘unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta‘limni ta‘minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta‘lim sifatini takomillashtirish jarayonidir [2, 5].

Bolonya deklaratsiyasida ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta‘limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita faoliyatni bajarishga xizmat qiladi: birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya‘ni bir oliy ta‘lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish)ni ta‘minlaydi; ikkinchisi, talabaning tanlagan ta‘lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama — kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi.

Bolonya deklaratsiyasining eng muhim jihatlaridan biri oliy ta‘lim muassasalari yagona “kredit tizimi”dan foydalanish (ECTS)ga asoslanadi. Kredit yoki kredit birligi — o‘quv rejasida hisobga olingan har qanday o‘quv faoliyatining qiymat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Bugungi kunda ta‘lim tizimiga daxldor bo‘lgan mutaxassislar tomonidan Bolonya tizimi, uning ahamiyati bo‘yicha turli fikr-mulohazalar mavjud. Ushbu tizimni yaratish uchun o‘tgan asrning 70-yillaridan Yevropadagi barcha oliy ta‘lim muassasalarining integratsiyasini ta‘minlash, uning yagona standartini yaratish, talabalar va o‘qituvchilar mobilligini yo‘lga qo‘yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko‘nikmasiga qo‘yiladigan ballarni unifikatsiya qilish bilan bog‘liq bir qator muammolarni echishga qaratilgan sa‘y-harakatlar boshlab yuboriladi [3, 7].

ECTS tizimi Yevropa va umuman, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari talabalariga katta afzalliklarni taqdim etadi - talaba ta‘lim olayotgan universitetida egallagan akademik bilimlarini shu tizimga a‘zo mamlakatlar oliy ta‘lim muassasalarida tan olinishini, ya‘ni o‘ziga xos “konvertatsiyasi” kafolatlanadi. Shu bilan birga, mazkur tizim a‘zolariga talabalarni boshqa OTMga o‘qishini tiklash, ko‘chirish va tugatish imkoniyatini beradi.

ECTS tizimi universitetlarga ham bir qator qulayliklarni taqdim etadi. Jumladan, ma‘lum bir ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar kesimida o‘quv jarayoni haqidagi axborotlarni aniq aks ettiruvchi o‘quv

rejalarning o'xshashligi hamda yagonaligini ta'minlaydi. Shuningdek, mutaxassislik darajasining tan olinishiga erishish maqsadida talabani qabul qiluvchi va jo'natuvchi oliy o'quv yurtlaridagi dasturlarning mazmunini oldindan kelishib olish imkonini beradi. Talabani ta'lim olishi bilan bog'liq barcha masalani hal etishdagi javobgarligi hamda mustaqilligi saqlanadi. Yevropa ta'lim tizimida o'quv kurslari va barcha ta'lim jarayoni kreditlarda, O'zbekiston hamda MDHning boshqa mamlakatlarida esa akademik soatlarda hisoblanib kelinadi.

ECTS tizimi bo'yicha har bir oliy ta'lim muassasasi kredit tarkibini, har bir modul bo'yicha kreditlar sonini, qolaversa, har bir kurs va umuman, o'qish davrini tamomlash uchun talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiy miqdorini mustaqil belgilaydi [4, 9].

Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabani individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan chetlashtirilmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. Qaysi fan (kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi.

ECTS tizimi bo'yicha talabalarning bir yilda to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili ikki semestrda iborat bo'ladi deb olsak, talaba har semestrda 30 kredit to'plab borishi lozim. Bakalavriat dasturi 3-4 yillik bo'lsa, talaba bakalavr darajasini olishi uchun jami 180 — 240 kredit, 1-2 yillik magistratura dasturini tugallashi uchun esa, 60 — 120 kredit to'plashi majburiyat hisoblanadi.

Modul — bu bir nechta fan hamda kurslar kesimida o'rganiladigan o'quv rejaning bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabani faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi [4, 10].

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 — 4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish tamoyillari asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabani fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat [5, 8].

Xulosa

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabani barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Kredit — talabani me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabani akademik "aktiv"ga aylanib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘rinov V., Umarov A. Oliy ta’limda kredit-modul: yangi o‘quv yilida talabalarni nimalar kutmoqda? <https://kun.uz/news/2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul-kelayotgan-oquv-yilida-talabalarni-nimalar-kutmoqda>.
2. Jessica Shedd (2003), "The History of the Student Credit Hour". / New Directions for Higher Education. 122 (Summer) (122): 5–12. [ingliz tilida]
3. Resolution of The Council and of the Ministers of Education, Meeting within the Council, // Official Journal of the European Communities, 1976. <https://eur-lex.europa.eu/legal>). [ingliz tilida]
4. Robert Wagenaar, A History of ECTS, 1989-2019. Developing a World Standard for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education. // International Tuning Academy, 2020. [ingliz tilida]
5. Maxmonov U.A. Oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi va imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim / 2021 yil, (1).
6. Abdullaeva U.K. Znachenie interaktivnykh metodov obucheniya v sovershenstvovanii urovnya klinicheskix znaniy studentov // Meditsinskoe obrazovanie i professionalnoe razvitie. 2019. №1(33). B. 29-33. [rus tilida]
7. Timofeev A.A. Kreditno-modulnaya sistema organizatsiya uchenogo protsessa v vysshem uchebnom zavedenii / A.A. Timofeev // Sovremennaya stomatologiya. 2019 – S.142-143. [rus tilida]
8. Buslyuk G.E., Andreenko R.E., Kolechyonok A.A. Modulnoe obuchenie. Minsk: Krasiko-Print, 2007. 176 s. 3. Kachestvo visshogo obrazovaniya i sistema zchetnix edinis // Vishee obrazovanie v Rossii. – 2004. – No 5. – S. 14-18. [rus tilida]
9. Kuznesova Ye.I., Kraves A.G. Modelirovanie kreditno-modulnoy struktury individualnoy traektorii obucheniya studenta / Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. - 2009. T. 6. S. 99-102. [rus tilida]
10. Metodicheskie rekomendatsii po vnedreniyu v vuze sistemy zchetnykh edinis (kreditov) / Gosudarstvennyy universitet upravleniya, Sentr kachestva: [sost. O.V. Davydova, V.I. Zvonnikov, M.B. Chelushkova] – M.: GUU, 2010. – 50 s. [rus tilida]
11. Smolyaninova Yu.V. K probleme vnedreniya ballno-reytingovoy sistemi v vuze / Yu. V. Smolyaninova // Ekonomika. – 2010. - vip. 5. - S. 64. [rus tilida]
12. Xobotova, E. B. Vozmozhnosti sovershenstvovaniya kreditno-modulnoy texnologii obucheniya / E. B. Xobotova // Vestnik Xarkovskogo natsionalnogo avtomobilno-dorojnogo universiteta. – 2009. - No45. – S. 7-9. [rus tilida]

Qabul qilingan sana 09.09.2022